

Date: 7th February-2025

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XO‘JAYLI TUMANIDA
QO‘YLARNING ANOPLLOTSEFALYATOLARI TARQALISHI VA
EPIZOOTOLOGIK XUSUSIYATLARI

Esimbetov Adilbay Tlepovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. Professor.

Avezimbetov Shavkat

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, dotsent.

Bauaddinov Kamaladdin Karamaddinovich

Magistrant.

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanida 2024-2025-yillarda qo‘ylarning anoplplotsefalyatoz qo‘zg‘atuvchilari bilan zararlanish darajasi va kasallikning epizootologik xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot davomida *Moniezia expansa* va *Moniezia benedeni* kabi ichak parazitlarining qo‘ylar orasida tarqalish darajasi tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida kasallikning oldini olish va samarali profilaktik choralarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Qo‘ylar, anoplplotsefalyatoz, *Moniezia expansa*, *Moniezia benedeni*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xo‘jayli tumani, parazitologiya, epizootologiya, ichak parazitlari, profilaktika.

O‘zbekiston sharoitida qo‘ylarning anoplplotsefalyatozlari qo‘zg‘atuvchilarining tur tarkibini o‘rganish ilk bor rejali ravishda 1930-1933 yillarda B.S. Ershov (1933) tomonidan maxsus gelmintologik ekspeditsiya rahbari va ishtirokchisi tomonidan olib borilgan va Koson qorako‘lchilik xo‘jaligida qo‘ylarni ikki tur sestodlar – *M.expansa* va *M. benedeni* lar bilan o‘rtacha 47 foiz zararlanganligi, katta yoshdagi qo‘ylarni ular bilan 8,0 foizdan 20 foizgacha, qo‘zilarni esa 78,0 foiz invazyialanganligi qayd qilingan (70 bosh turli yoshdagi qo‘ylarning ingichka ichagini gelmintologik yorish yo‘li bilan tekshirilganda). Shundan so‘ng prof. N.V. Badanin Samarqand viloyati sharoitida 1944 - 1948 yillarda qo‘ylar orasida anoplplotsefalyatozlarning qo‘zg‘atuvchilarining tarqalishini maxsus o‘rgandi. Uning natijasida ilk bor qo‘ylarda *M.expansa* va *M. benedeni* sestodlaridan tashqari yana 3 turga oid anoplplotsefalyatlarning parazitlik qilishi aniqlandi. Ularga *Thysaniezia* avlodining *Thysaniezia giardi* (Moniez,1879), *Avitellina* avlodining *Avitellina centripunctata* va *Stilesia* avlodining *Stilesia globipunctata* turlari kiradi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston hududida uchraydigan barcha qo‘ylarning 5 tur ichak sestodlari chet el, asosan, Yevropa davlatlarining zoolog, parazitolog olimlari tomonidan XIX asrning 1810- 1879 yillarida aniqlangan va fanga kiritilgan. Ushbu turlar esa 1880 yildan hanuzgacha dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida ro‘yxatga olinib kelinmoqda. Shu bilan birga ularni turli uy va yovvoyi o‘txo‘r sut



Date: 7thFebruary-2025

emizuvchilarda parazitlik qilishi kuzatilib, ular tomonidan chaqiradigan kasalliklar o'rganilib kelinmoqda.

Yuqoridagi adabiyot malumotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, oraliq xo'jayinlari bir xil umurtqasizlar, masalan oribatid kanalari bo'la turib, qaysi omillar tasirida dastavval qo'ylarni *M.expansa* bilan, so'ngra *M. benedeni* bilan zararlanishi kechar ekan. Bunday aniq xulosaga kelgan mualliflar O'zbekistonda ham, chet el mamlakatlari olimlari orasida ham etarli uchratdi. Shu bilan birga O'zbekistonlik tadqiqotchilarning (R.X.Xaitov, M.Mardiyev, Sh.A.Azimov, I.X.Irgashev, Sh.Jabborov) larning epizootologik malumotlarida chalkash hatto bir-biriga zid bo'lgan xulosalar ham uchraydi. Ularga aniqlik kiritish uchun monieziozning qo'zg'atuvchilarining tur tarkibini, tarqalishini, chaqiradigan kasalliklarning epizootologik xususiyatlarini qayta, chuqurroq o'rganish talab qilinadi.

Tadqiqotlar kasallikdan o'lgan yoki majburiy hamda go'sht mahsuloti olish uchun so'yilgan qo'ylarning ingichka bo'lim ichaklarida joylarda yoki "Hayvonlar kasalliklari va parazitologiya" kafedrasining ilmiy – tadqiqot laboratoriyasida akademik K.I.Skryabinning ichki organlarining alohida to'liq gelmintologik yorish usulida tekshirildi. Ichakda topilgan barcha sestodlar toza suvda yuvib olinib, maxsus shisha idishlarga solindi. Har bir sestodning skoleksi, bo'yinchasi va strobilasidagi bo'g'imlarning shakli, hajmi, yetilgan bo'g'imlardagi tuxumlari yoki pillalari alohida makroskopik va mikroskopik usullar yordamida o'rganildi. Ularning turlari aniqlangach 70 foizli spirtda yoki 3.0 foizli Barbagallo suyuqligida saqlandi.

Monieziozning tarqalishi va boshqa uning epizootologik xususiyatlarini o'rganishda shuningdek institutning Oqdaryo tumani hududida joylashgan o'quv-tajriba xo'jaligida saqlanadigan qo'ylardan foydalandik. Qolaversa qo'ylarning ichak sestodlari bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni to'plashda, o'rganishda bakalavr davrida boshlagan ilmiy tadqiqotlardan ham foydalanildi.

Gelmintologik yorish yo'li bilan tekshirilgan 62 bosh qo'ylarning 34 boshini 1 yoshgacha bo'lgan qo'zilar, 12 boshini 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan qo'ylar, 16 boshini 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan qo'ylar tashkil qildi.

Tekshirilgan 34 bosh qo'zilarning 18 boshining ingichka ichagida 1 nusxadan 14 nusxagacha monieziyalar topildi. Ularning jami soni 95 nusxani tashkil qildi. Shunga ko'ra yosh qo'zilarida monieziozning invaziya ekstensivlik darajasi 53,0 foiz, invaziya intensivlik darajasi o'rtacha 5,3 nusxaga to'g'ri keladi.

Qo'ylarning yoshiga ko'ra moniezioz qo'zg'atuvchilarining invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligining o'zgarishi.

Bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan 12 bosh qo'ylarning 3 boshining ingichka ichagida 4 nusxadan 23 nusxagacha monieziyalar uchrashi qayd qilingan.

Jami monieziyalar soni 34 nusxani tashkil qildi. Shularga ko'ra ushbu yoshdagi qo'ylarda monieziozning invaziya ekstensivligi 6,6 foizni tashkil qildi.

Bir yoshgacha bo'lgan qo'ylarda topilgan 95 nusxa monieziyalarning 74 nusxasini yoki 77,8 foizini *M.expansa*, qolgan 21 nusxasini (22,2 foiz) *M.benedeni* tashkil qildi. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan qo'ylarning uch boshida topilgan 34 nusxa



Date: 7th February-2025

monieziyalarning 23 nusxasi yoki 67,6 foizi *M.benedeni*, 32,4 foizi *M.expansa* ga to'g'ri keldi. Katta yoshdagi ona qo'ylarning monieziozning juda kam holatlarda chalinishi ko'zatildi, u ham bo'lsa *M.benedeni* ga to'g'ri keldi. (3-jadval)

Masalan institutning o'quv-tajriba xo'jaligida 4 yil mobaynida olib borilgan gelmintologik tekshirishlarda ikkinchi holatda yani 2 bosh 2 yoshdan o'tgan qo'ylarda *M.expansa* bilan zararlanishi ko'zatilgan xalos.

Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar shundan dalolat berib turibdiki, monieziozga asosan 1 yoshgacha bo'lgan qo'zilar eng ko'p chalinadi. Invaziya intensivlik 1 yoshgacha bo'lgan qo'ylarda yuqori bo'lsada, invaziya ekstensevlik birmuncha past darajada. Ikki yoshgacha bo'lgan qo'ylarni cho'l-yaylov zonada intensiv holda *M.benedeni* va boshqa sestodlar bilan zararlanishi ushbu masalani yanada chuqurroq o'rganishni ta'qoza etadi .

Bizlarning tadqiqotlarimiz katta yoshdagi qo'ylarni juda ham kam monieziyalar bilan zararlanganligini ko'rsatdi. Ammo, bu bizlarning oxirgi xulosamiz emas, uni boshqa viloyatlar sharoitida yanada mukammal o'rganish zarur deb bilamiz.

Adabiyot ma'lumotlarida O'zbekiston sharoitida uchraydigan qo'ylarning ichak sestodlarining tur tarkibi, *Moniezia expansa* (Rudolphi, 1810) va *Moniezia benedeni* (Moniez, 1879) chaqiradigan monieziozning epizootologiyasi turlicha tahlil qilingan, ular orasida bir-biriga zid bo'lgan fikr va xulosalar mavjud.

Qo'ylarning ichak sestodlarining tarqalishini o'rganishga bag'ishlangan eng so'ngi adabiyot ma'lumotlari anoplotsefalyatoz kasalliklari- moniezioz, tizaniezioz, avitellinozlarning qo'zg'atuvchilarining tur tarkibini ikki marta qisqarganligini ko'rsatib turibdi.

Bizlarning tadqiqotlarimiz esa birgina Samarqand viloyati sharoitida qo'ylarning ichak sestodlarining tur tarkibini nafaqat hozirgacha bioxilma-xilligini saqlanib turishini, balki ularni boyib borayotganligini (monieziyalar bilan) ko'rsatdi.

Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, qolaversa boshqa viloyatlarda qo'ylar anoplotsefalyatozlarining epizootologiyasini o'rganishga bag'ishlangan adabiyot ma'lumotlarida tizaniezioz qo'zg'atuvchisi *Thysaniezia giardi* (Moniez, 1879) ni tarqalishi va miqdori jihatidan barcha qolgan ichak sestodlari orasida birinchi o'rinda, moniezioz qo'zg'atuvchilaridan *M.benedeni* ni ikkinchi, *M.expansa* ni uchinchi, avitellinoz qo'zg'atuvchisi-*Avitellina centripunctata* (Rivolta,1874) ni eng so'ngi o'rinda turishi ko'rsatilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida qo'ylarning anoplotsefalyatoz qo'zg'atuvchilari bilan zararlanishi yosh guruhlariga va ekologik sharoitlarga bog'liq holda farqlanadi. Bir yoshgacha bo'lgan qo'zilarida invaziya ekstensivligi yuqori bo'lib, *Moniezia expansa* va *Moniezia benedeni* parazitlari ustunlik qiladi. Katta yoshdagi qo'ylarda esa invaziya ekstensivligi keskin kamayadi. Tadqiqot davomida *M. expansa* ning ko'proq yosh qo'zilarida uchrashi, *M. benedeni* ning esa barcha yosh guruhlarida mavjudligi qayd etildi. Epizootologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu parazitlarning tarqalishi yaylov holati, iqlim sharoitlari va mavsumiy omillar bilan bevosita bog'liq.



Date: 7th February-2025

Muhokama va munozara. Adabiyot manbalarida O'zbekiston sharoitida qo'ylarning ichak sestodlari tarqalishi bo'yicha bir-biriga zid bo'lgan fikrlar mavjud. Oldingi tadqiqotlarda M. expansa va M. benedeni ning faqat ayrim hududlarda uchrashi yoki ularning ekologik sharoitga bog'liqligi qayd etilgan bo'lsa, ushbu tadqiqot natijalari bu parazitlarning keng tarqalganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, qo'ylarning yosh guruhlariga bog'liq holda invaziya ekstensivligi va intensivligi o'zgarib boradi. Masalan, yosh qo'zilarida M. expansa ustunlik qilsa, katta yoshdagi qo'ylarda M. benedeni nisbatan barqaror uchraydi. Bu esa veterinariya amaliyotida anthelmintik dorilarni tanlash va profilaktika choralari rejasini tuzishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim jihatlardir.

Bundan tashqari, parazitlarning tarqalishi va intensivligi mavsumiy omillarga bog'liq bo'lib, bahor va kuz fasllarida yuqori darajaga yetadi. Bu esa parazitlarning oraliq xo'jayinlari bo'lgan oribatid kanalarining faolligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun anoplotsefalyatozlarni samarali nazorat qilish uchun mavsumiy monitoring tizimini joriy etish zarur.

Xulosa. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida qo'ylarning ichak sestodlari, xususan anoplotsefalyatoz qo'zg'atuvchilari keng tarqalgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yosh qo'zilar ushbu parazitlarga eng zaif guruh hisoblanib, bahor va kuz oylarida kasallik yuqori darajada tarqaladi. Shu sababli veterinariya amaliyotida mavsumiy profilaktika choralari va rejalashtirilgan anthelmintik davolash usullarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Amaliyotga tavsiyalar

Muntazam profilaktika – qo'ylarni yiliga kamida ikki marta (bahor va kuzda) anthelmintik dorilar bilan davolash lozim.

Diagnostik monitoring – gelmintologik tekshiruvlar orqali qo'ylarning ichak parazitlari bilan zararlanganlik darajasini doimiy ravishda nazorat qilish kerak.

Ekologik omillarni nazorat qilish – yaylovlarning sanitar holatini yaxshilash, tuproqdagi oribatid kanalar populyatsiyasini kamaytirish choralari ko'rish zarur.

Oziqlantirish va parvarish – qo'ylarning immunitetini oshirish maqsadida vitaminli ozuqalar va minerallar bilan ta'minlash lozim.

Veterinariya xizmatlarini takomillashtirish – mahalliy xo'jaliklarda veterinariya xizmatlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, parazitologik tekshiruvlarni o'tkazish va zamonaviy anthelmintik preparatlarni qo'llash zarur.

Ushbu tavsiyalar chorvachilik xo'jaliklarida qo'ylarning sog'lig'ini yaxshilash, mahsuldorlikni oshirish va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдиев Т, Сувонкулов У, Коваленко Д, Абдиев Ф, Арзиев Х. Распространенность гельминтозов в Узбекистане. Журнал проблемы биологии и медицины. 2014 Aug 15(3 (79)):2-3.
2. Абдиев ТА, Сувонкулов УТ, Куркина ТН. Лечение эхинококкоза и других гельминтозов. Инфекция, иммунитет и фармакология. 1999:4.



Date: 7th February-2025

3. Dosumbetovich, A. S., Uli, A. D. M., & Abdusalim, A. (2023). QORAQOLPOQSTON SHOROITIDA MAYDA UY HAYVONLARIDA NEMOTODA KASALLIGINING TARQALISHI. *Scientific Impulse*, 1(8), 43-47.4. Abatbaeva AM, Arziyev XY, Axmedov BN, Murodov XU. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QUSHÍLÍQ XOJALÍQLARÍNDÁ MAREK KESELLIGINÍŇ JASQA BAYLANÍSLÍ DINAMIKASÍ: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223535>. In International scientific and practical conference 2024 Nov 15 (Vol. 1, No. 1, pp. 165-169).
5. Reygnazarova NE, Murodov XU, Arziyev XY. QUSLAR JUQPALI LARINGOTRAXEIT KESELLIGINÍŇ ALDIN ALIW HÁM EMLEW: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223230>. In International scientific and practical conference 2024 Nov 15 (Vol. 1, No. 1, pp. 149-153).
6. Yuldashevich AK, Salomatovich TM, Ogli OD, Kizi AA, Amangeldiyevna MG. THE ROLE OF DEWORMING IN THE HEALTHY CARE OF HORSES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. 2022 Sep 30;2(09):85-9.
7. Arziyev KY, Togaymuradov MS, Allamurodov BP, Abdusamadov AA, Khudoyberdiyev BK, Yusupov NB. The Role Of Anesthesia In The Prevention Of Cenurosis. *The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery*. 2021 May 12;3(03):1-7.
8. Arziyev KY, Rasulov SM, Togaymurodov MS. Blood Indications In Echinococcosis Of Large Horned Animals. *The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery*. 2021 Feb 27;3(01):9-15.
9. Абдиев Т, Сувонкулов У, Салимов Б, Вахобов Т, Арзиев Х. Научные основы профилактики эхинококкоза. *Журнал проблемы биологии и медицины*. 2016 Nov 14(4 (91)):200-2.
10. Абдиев Т, Саидахмедова Д, Сувонкулов У, Качугина Л, Вахобов Т, Абидов З, Арзиев Х. Клинические аспекты хронической посттравматической головной боли у детей и подростков. *Журнал проблемы биологии и медицины*. 2015 Nov 14(4, 1 (85)):8-9.
11. Erimov Sirijiddin Farhodovich, Djumaboev Abdurasul Baxt ugli, & Son of Mirzabekov Miyirbek O'mirbek ugli. (2023). «QUYON OTODEKTOZI»NING BIOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI, UNING SISTEMATIKADAGI O'RNI, LABORATORIYA DIGINOZI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (6), 132–140. <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/>
12. Farxodovich, E. S. (2023). DIXROSELIOZ QO'ZBARCHI SISTOGONIYASI PROGRESSIYASI BOSHQACHINING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (10), 70-77.
13. Erimov, S. F., Erimov, F. F., & Jumaniyozova, J. M. (2024 yil, noyabr). GASTROFILYOZ-OTLAR (EQUUS FERUS CABALLUS) HAVFLI ENTOMOZ KASALLIGI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222253>. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda* (1-jild, 1-son, 95-110-betlar).
14. Shakilov, U. N., Erimov, S. F., & O'ktamov, A. A. (2024, November). ATLAR GASTROFILYOZI QOZGAWTIWSHILARINA EKOLOGIYALIQ FAKTORLAR



Date: 7th February-2025

TÁSIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14219999>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 78-84).

15. Erimov, S. F., Erimov, F. F., & Jumaniyozova, J. M. (2024, November). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI ARID IQLIM SHAROITIDA OTLAR GASTROFILYOZI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222297>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 110-116).

16. Shakilov, U. N., Erimov, S. F., & O'ktamov, A. A. (2024, November). GASTROFILYOZ KESELLIGI QOZG'AWTIWSHILARINA ANTIGELMINT DÁRI ÓNIMLERI TÁSIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14220032>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 84-88).

17. Farhodovich, E. S. (2024). OTLAR GASTROFILYOZI QO 'ZG'ATUVCHILARIGA EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(5), 186-191.

18. Farhodovich, E. S. (2024). GASTROFILYOZ KASALLIGI QO'ZG'ATUVCHILARIGA ANTIGELMINT DORI VOSITALARI TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(5), 181-185.

19. Erimov, S. F., Erimov, F. F. va Djumaniyazova, J. M. (2024). GASTROFILOZ OTLARNING XAVFLI ENTOMOSIK KASALLASI (EQUUS FERUS CABALLUS). *DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI*, 56 (5), 174-178.

20. Erimov, S., Erimov, F., & Jumaniyozova, J. (2024 yil, noyabr). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURG'OQ IQLIM SHARTLARIDA OTLARNING GASTROFILOZI. *TIBBIYO'T, FAN VA TA'LIM BO'YICHA XALQARO KONFERENSIYADA* (1-jild, No10, 63-70-betlar).

21. Erimov, S., Erimov, F., & Jumaniyozova, J. (2024). GASTROFILOZ-OTLAR (EQUUS FERUS CABALLUS)-HAVEN ENTOMOSIS. *Pedagogika fanlari shakllanishining nazariy jihatlari*, 3 (19), 127-133.

22. Farhodovich, E. S., & Arislanbek o'g'li, A. I. (2023). ARALSEEBUCHTDA QO'YLARNING ORIENTOBILGARSIOZI EPIZOOTOLOGIYASI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (10), 106-114.

23. Dauletabaev, N. P., & Tajimuratov, Q. (2024, November). YIRIK SHOXTI MOLLARDA PODODERMATIT KASALLIGINING ETIOPATOGENEZI, TARQALISHI VA UNI DAVOLASH: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222207>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 102-105).

24. Dauletboev, N. P. (2024). Turli xil tabiiy sharoitlarda kurkalarning tug'ruqdan keyingi ontogenez davrida oyoq suyaklari va mushaklarining morfometrik xususiyatlari adabiyotlarni ko'rib chiqish. *Fan va innovatsiyalar*, 3 (Maxsus 47-son), 698-701.

